

DOI: 10.5281/zenodo.15589441

Link: <https://zenodo.org/records/15589441>

NAMANGAN VILOYATIDAGI NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARI TADBIRKORLIK FAOLIYATI SALOHIYATI

Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti ilmiy tadqiqotchisi(PhD)

sodikjonabdusattorov@gmail.com

+998 99 960-09-90

Annotatsiya. Ushbu maqolada Namangan viloyatidagi nodavlat ta'lim muassasalarining tadbirkorlik salohiyati, ularning kengayishi va mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasi tahlil qilinadi. Muallif hududdagi xususiy bolalar bog'chalari, maktablar va oliy ta'lim muassasalarining son jihatidan o'sishi, bu o'sishga olib kelayotgan omillar va davlat tomonidan berilgan imkoniyatlarni yoritadi. Shuningdek, xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil asosida O'zbekistonda bu sohaning hali to'liq rivojlanmaganligi, ammo katta salohiyatga ega ekani ta'kidlanadi. Statistika va amaliy misollar orqali xususiy ta'lim sohasining hozirgi holati va istiqbollari chuqur o'rganiladi hamda ularni qo'llab-quvvatlash uchun taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar. Nodavlat ta'lim, Tadbirkorlik salohiyati, Namangan viloyati, Xususiy maktab, Bolalar bog'chasi, Oliy ta'lim, Ta'lim siyosati, Soliq imtiyozlari, Xorijiy tajriba, Ta'lim xizmatlari bozor.


KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilib, nodavlat ta'lim muassasalarining kengayishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, xususiy sektorning ta'lim tizimidagi ulushi ortib borayotgani innovatsiyalar, raqobatbardoshlik va sifatli xizmatlar ko'rsatish imkonini yaratmoqda. Namangan viloyati misolida olib borilgan tahlillar ushbu jarayonning hududiy o'ziga xosliklarini va tadbirkorlik salohiyatini chuqur o'rganishga zamin yaratadi. Mazkur maqolada Namangan viloyatidagi nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanish tendensiyalari, muammolari va istiqbollari ko'rib chiqiladi.

ASOSIY QISM

Nodavlat ta'lim muassasalarining kengayishi ta'lim sohasida innovatsiyalar va raqobatbardoshlikning asosiy omillaridan biriga aylandi. Namangan viloyati misolida qaralganda, xususiy bolalar bog'chalari, maktablar va universitetlarning o'sishi xilmal va yuqori sifatli ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rsatmoqda (1-rasm). Xususiy ta'lim sohasi rivojlanib borar ekan, uning tadbirkorlik salohiyatini tushunish va uni yanada kuchaytirishga ehtiyoj ham ortmoqda. Namangan viloyatidagi nodavlat ta'lim muassasalarida tadbirkorlik faoliyatining o'sishini qo'llab-quvvatlaydigan yoki unga to'sqinlik qilayotgan mexanizmlarni o'rganish, bu jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarini tahlil qilish dissertatsiyaning muhim vazifalardan biridir.

Xususiy ta'lim muassasalariga (xususiy bog'cha, xususiy maktab, o'quv markazlari) nisbatan munosabatingiz?



1-rasm. Xususiy ta'lim muassasalariga nisbatan munosabat⁷

Qolaversa, imkoniyatlar va muammolarni aniqlagan holda, xususiy ta'lim korxonalarining to'liq salohiyatini ochib berish va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishga xizmat qiluvchi samarali strategiyalarni taklif qilishni ham maqsad qilinadi. Bu borada Namangan xalqining o'z farzanlari kelajagi uchun eng muhim omil o'laroq sifatli ta'lim olishni tanlashlari ham ta'lim tadbirkorligi imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, Namangan viloyati har bir tumanining umuman olganda xususiy ta'lim muassasalariga nisbatan munosabati ijobiy ekanligi, hattoki imkoni bo'lganida farzandlarini shu kabi muassasalarda o'qitish istaklari ham bu tarmoq salohiyatidan darakdir.

So'nggi yillarda Namangan viloyatida xususiy bolalar bog'chalari soni sezilarli darajada oshdi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, faqat 2024-yilning may va iyun oylarida viloyatda 206 ta yangi xususiy bolalar bog'chasi tashkil etilgan. Bu ko'rsatkich shu davr ichida O'zbekistonning barcha hududlari orasida eng yuqori bo'lib, Farg'ona (189 ta) va Samarqand (141 ta) viloyatlarini ortda qoldirgan.⁸

⁷ Muallif tadqiqoti natijalari asosida

<https://docs.google.com/forms/d/1fT3Iu8XmBVx2snAxVQmb7J1HJFSvpoZYAg56IdQs9Tw/edit>

⁸ <https://www.uzdaily.uz/en/some-1100-private-kindergartens-were-established-in-uzbekistan-in-may-june>



Bu tezkor kengayish mamlakat miqyosidagi tezkor tendensiyani ham aks ettiradi. 2017-yilda O‘zbekistonda atigi 250 ta xususiy maktabgacha ta’lim muassasasi mavjud edi. 2021-yilga kelib, ularning soni 18 500 tadan oshdi, ularning taxminan 93 foizi oilaviy bog‘chalar shaklida faoliyat yuritmoqda.⁹ Namangan viloyatining bu o‘shiga qo‘shgan katta hissasi hududning nodavlat maktabgacha ta’lim sohasida faol ishtirok etayotganini ko‘rsatadi.

Ta’lim xizmatlari bozoridagi tadbirkorlikning yana bir an’anaviy turi hisoblangan xususiy maktablar tizimi ham hozirgi kunda jadal suratlar bilan o‘rib bormoqda. Birinchi bobda, xorij mamlakatlarining xususiy ta’lim tarmoqlaridagi ulushi va O‘zbekiston ulushini qiyosiy tahlildan o‘tkazgan edi (1-jadval).

1-jadval

Xususiy maktab va oliy ta’lim muassasalari soni bo‘yicha xorij tajribalari va O‘zbekistonning qiyosiy tahlili¹⁰

Davlatlar	Umumta’lim maktablari (Davlat)	Umumta’lim maktablari (Xususiy)	OTM (Davlat)	OTM (Xususiy)
O‘zbekiston	97%	3%	59%	41%
AQSh	76,70%	23,30%	32%	68%
Xitoy	65,63%	34,37%	59,10%	40,90%
Hindiston	67,80%	32,20%	74%	26%

Bundan ko‘rinib turganidek, xususiy umumta’lim maktablari salmog‘i bo‘yicha AQSh 23.3%, Xitoy 34.4% va Hindiston 32.2% ni ko‘rsatgan bir paytda, O‘zbekistonning bu boradagi ko‘rsatkichi atigi 3% ni ko‘rstadi. Bu degani hali ushbu sektorga qaratilishi kerak bo‘lgan e’tibor juda ham ulkandir.

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024/25-o‘quv yilida xususiy maktablarda tahsil olayotgan o‘quvchilar soni avvalgi o‘quv yiliga nisbatan deyarli ikki baravarga oshgan va 2018/19-o‘quv yilining boshiga nisbatan 8,1 baravar ko‘p bo‘lgan.

2024/25-o‘quv yili eng katta o‘shish qayd etilgan davr bo‘ldi — bu davrda o‘quvchilar soni avvalgi yilga nisbatan 75% ga oshgan. Pandemiya yillarida o‘shish sur‘ati sekinlashgan bo‘lsa-da, so‘nggi olti yilda xususiy maktablarda o‘quvchilar sonining o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 43,1% ni tashkil etmoqda.

Xususiy maktablarda farzandlarini o‘qitayotgan ota-onalar uchun soliq imtiyozlari 2022-yil 1-apreldan boshlab xususiy maktablar va bog‘chalarga kontrakt to‘lovini amalga oshirayotgan ota-onalarga oyiga 3 million so‘mgacha bo‘lgan summada daromad solig‘idan ozod etish huquqi berilgan:

Agar kontrakt to‘lovi ish haqi hisobidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ushlab qolinsa, soliq imtiyozi avtomatik tarzda qo‘llaniladi. Aks holda, ota-ona yil yakunida soliq deklaratsiyasi topshirish orqali ortiqcha to‘langan soliqni qaytarib olish huquqiga ega bo‘ladi. Bu uchun xususiy maktab bilan tuzilgan shartnoma va to‘lov amalga


⁹ Deepa Sankar, “Uzbekistan Education Sector Analysis: 2021”, UNICEF Uzbekistan, December 2021

¹⁰ Muallif ishlanmasi

oshirilganini tasdiqlovchi hujjatlar talab etiladi. Deklaratsiya va to‘lovni qaytarish jarayonini my3.soliq.uz portali orqali onlayn tarzda amalga oshirish mumkin.

Aynan shunday sharoit va imtiyozlar natijasida O‘zbekistonda 2024/25 o‘quv yilining boshlanish payti holatiga, xususiy maktablarda o‘qiyotgan o‘quvchilar soni 112 ming 93 nafarga yetdi (2-rasm).¹¹

Ammo bu raqamlar hali mamlakatga keng miqyosda yordam berish uchun kamlik qiladi. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti ekspertlari O‘zbekiston maktablaridagi infratuzilma va ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida tadqiqot o‘tkazib, mamlakatda ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bir qator omillar mavjudligi aniqlashgan va o‘quvchilarning 33 foizi ikkinchi va uchinchi smenalarda o‘qiyotganliklarini ta’kidlashgan.



2-rasm. O‘zbekistonda 2018-2025-yillarda xususiy maktab o‘quvchilari soni¹²

“2022–2023 o‘quv yilida respublikada 10 ming 522 ta umumta’lim maktabi faoliyat yuritgan (194 tasi xususiy), maktablar soni 2021–2022 o‘quv yilidagiga nisbatan 233 taga oshgan. O‘quvchilar soni 6 mln 461 ming 741 nafarni tashkil etgan (ularning 0,71 foizi xususiy maktablarda). Maktablar esa 5 mln 283 ming 916 nafar o‘quvchi uchun mo‘ljallangan, ya’ni 1 ta o‘quvchi o‘rniga 1,2 nafar o‘quvchi to‘g‘ri kelmoqda.

Buning oqibatida respublikadagi umumta’lim maktablarining 5 tasi uchta smenada va 4 ming 777 tasi ikkita smenada faoliyat yuritadi. Ikkinchi va uchinchi smenada o‘qiydigan o‘quvchilar soni 2,1 mln dan oshiq bo‘lib, jami o‘quvchilarning 33 foizini tashkil etadi.

Umumta’lim maktablarining 64,2 foizida oshxona yoki bufet, 95 foizida kutubxona, 79 foizida sport zali bor. Maktablarning bor-yo‘g‘i 30 foizi kanalizatsiyaga ega, 70,5 foizida “vodoprovod” mavjud. Umumta’lim maktablarining 99 foizi isitish tizimiga ega.”¹³, - deb yoziladi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti rasmiy

¹¹ <https://kun.uz/en/news/2025/03/17/a-75-increase-more-parents-choosing-private-schools-for-their-children>


¹² Internet ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

¹³ https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/talim_sifati



saytida. Ko'rinib turganidek, xususiy maktablarning rivoji faqatgina ta'lim tadbirkorlarigagina emas, butun bir davlatning maktab tizimidagi kamchiliklarida to'g'rilashga yordam bera oladi.

Namangan viloyatida ham xususiy maktablar shakllanish bosqichida - deyarli davlat miqyosi bilan to'g'ri proporsional holatda (3-rasm)



3-rasm. Namangan viloyatidagi mavjud xususiy va davlat maktablari nisbati (2024-yil holatiga ko'ra)¹⁴

Namangan viloyatidagi xususiy maktablarning ish faoliyatini boshlaganiga hali ko'p vaqt bo'lmadi. Oxirgi 3 yilda, asosan avvaldan Namangan shahrida o'z o'rniga, ulkan o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasiga, hamda ota-onalar ishonchiga ega bo'lgan “Effortless Education (Start21)”, “Learning Skills Lab (LSL)”, “Ziyokor” va “Time Trusted Quality (Dombit)” kabi nodavlat ta'lim tashkilotlari – o'quv markazlari o'zlarining xususiy maktablariga asos soldilar.

Ta'lim xizmatlari bozoridagi tadbirkorlik faoliyatining keyingi an'anaviy turi o'laroq nodavlat oliy ta'lim muassasalarini keltirish mumkin. Oliy ta'limda tadbirkorlik faoliyati deganda, oliy ta'lim muassasasi tomonidan amaldagi qonunlar doirasida tashabbuskorlik bilan tavakkal qilib ish ko'radigan, o'zining mulkiy javobgarligi asosida jamiyat, davlat va aholi ehtiyojlariga mos bilimlarni oshirishga qaratilgan va ma'lum darajada foyda olishni ta'minlaydigan faoliyat tushuniladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 30-aprel kuni nodavlat ta'lim xizmatlari tizimini takomillashtirish, oliy va kasbiy ta'limda sifatni oshirish chora-tadbirlari taqdimoti bilan tanishdi. Unda so'nggi yillarda ta'lim sohasida xususiy sektorga berilgan imkoniyatlar tufayli 71 ta xususiy oliygoh va 51 ta xususiy texnikum tashkil etilib, ularda 500 ming nafarga yaqin talaba va o'quvchilar tahsil olayotganligi aytiladi. Bunging natijasida mamlakatda oliy ta'lim bilan qamrov 9% dan 42% ga oshgani ta'kidlab o'tildi. Nodavlat ta'lim tashkilotlarida qabul parametrlari, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonlari hamda ilmiy salohiyatni sifat jihatidan yaxshilash, ularni zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish eng asosiy masalalardan biri ekanligini aytilib, bu borada ilg'or xorijiy tajribalar asosida ikki bosqichli litsenziyalash tizimiga o'tish, ta'lim dasturlarini maxsus akkreditatsiyadan o'tkazish hamda har besh yilda kompleks davlat akkreditatsiyasini tashkil etish bo'yicha takliflar bildirildi.

¹⁴ Namangan viloyat statistika boshqarmasi va erp.maktab.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Shuningdek, taqdimotda rivojlangan davlatlarning eng ilgʻor tajribasidan kelib chiqqan holda, taʼlim sifatini tashqi baholash bilan shugʻullanuvchi alohida mustaqil tuzilma tashkil etish hamda sifat nazoratining shaffof, xolis va adolatli tizimini joriy qilish tashabbusi ham ilgari surildi.

Namanganda ham ushbu soha rivojlanib borib, hozirgi kunda viloyatda 4 ta davlat va 5 ta nodavlat oliy taʼlim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Namangan viloyatidagi oliy taʼlimda tahsil olayotgan talabalarning 58 327 nafari davlat OTM larida tahsil olayotgan boʻlsa, 44 862 nafar talabalar xususiy sektorda oʻqimoqdalar. Bu ham Namangan viloyati taʼlim xizmatlari bozoridagi nodavlat taʼlim muassasalarining salohiyatini koʻrsatib bermoqda.

NATIJALAR

Namangan viloyatidagi xususiy taʼlim muassasalari soni va salohiyati yil sayin oshib bormoqda.

Taʼlim tadbirkorligi orqali ijtimoiy muammolar (ikki-uch smenali oʻqish, joy tanqisligi) bartaraf etilmoqda.

Xususiy sektor davlat taʼlim tizimidagi yuklamani kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Soliq imtiyozlari va qonunchilikdagi yengilliklar xususiy taʼlim muassasalarining faoliyatini ragʻbatlantirmoqda.

Namangan viloyatida xususiy oliy taʼlim muassasalari yuqori talab va salohiyat bilan ajralib turadi.

XULOSA

Namangan viloyatidagi nodavlat taʼlim muassasalari nafaqat taʼlim xizmatlari bozorini kengaytirmoqda, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ham faol hissa qoʻshmoqda. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, xususiy sektor imkoniyatlaridan toʻliq foydalanish uchun davlat tomonidan koʻproq institutsional va moliyaviy qoʻllab-quvvatlash zarur. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida taʼlim sifatini baholash, akkreditatsiya jarayonlarini soddalashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali bu sohani yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Namangan tajribasi Oʻzbekistonning boshqa hududlari uchun namuna boʻla oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Taʼlim tizimi statistik koʻrsatkichlari. – T.: Statistika agentligi, 2024. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Taʼlim sohasida islohotlar: Xususiy sektorni rivojlantirish chora-tadbirlari // Prezident.uz rasmiy veb-sayti. – 2025. – 30 aprel.
3. Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi. 2024-yilgi maktabgacha taʼlim muassasalari statistikasi. – T.: MMTV, 2024. – 42 b.
4. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti. Oʻzbekiston maktablaridagi infratuzilma va sifat: Analitik hisobot. – T.: Iqtisodiyot nashriyoti, 2024. – 68 b.

5. World Bank. Education statistics by country. – Washington: WB Press, 2023. – URL: <https://data.worldbank.org>
6. UNESCO Institute for Statistics. Global Education Monitoring Report. – Paris: UNESCO, 2023. – 112 p.
7. My3.soliq.uz – Fizik shaxslar daromad solig‘i deklaratsiyasi haqida. – URL: <https://my3.soliq.uz> (murojaat qilingan sana: 01.05.2025)
8. Namangan viloyati hokimligi. Hududiy rivojlanish va ta‘lim muassasalari haqida ma‘lumotlar to‘plami. – Namangan: Hokimiyat nashriyoti, 2024. – 33 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim muassasalarini litsenziyalash agentligi. Faoliyat tartib-qoidalari. – T.: 2023. – 25 b.
10. Hindiston, Xitoy va AQShda xususiy ta‘lim statistikasi // UNESCO Education Database. – URL: <https://uis.unesco.org> (murojaat qilingan sana: 01.05.2025)
11. Muallifning tadqiqot so‘rovnomasi
<https://docs.google.com/forms/d/1fT3Iu8XmBVx2snAxVQmb7J1HJFSvpoZYAg56IdQs9Tw/edit>
12. erp.maktab.uz ma‘lumotlari